

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI
QOSHIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc20/13.05.2020.Ss.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAXIMOV ILXOMJON AZIMJONOVICH

**O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTI BOSQICHIDA MAHALLA
INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI**

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

**SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) политическим наукам**

**Contents of dissertation abstract
of doctor of philosophy (PhD) in Political science**

Raximov Ilhomjon Azimjonovich

О‘zbekiston milliy taraqqiyoti bosqichida mahalla institutini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari3

Рахимов Илхомжон Азимжонович

Основные направления совершенствования института махалли на национальном этапе развития Узбекистана27

Rakhimov Ilkhomjon Azimjonovich

The main directions of improving the mahalla institution in the national development phase of Uzbekistan53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works58

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI
QOSHIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc20/13.05.2020.Ss.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAXIMOV ILXOMJON AZIMJONOVICH

**O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTI BOSQICHIDA MAHALLA
INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI**

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

**SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Ss242 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dba.uz/uz/avtoreferatlar) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Utamuradov Akbar Utamuradovich
falsafa fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Bayriyeva Almagul Qurbanovna
siyosiy fanlar doktori, professor

Alimardonov To'liq Turdiyevich
siyosiy fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi qoshidagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc20/13.05.2020.Ss.23.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100066, Toshkent sh., Islom Karimov ko'chasi, 45-uy, 7-qavat, 701-xona. Tel.: (99871) 232-60-47; e-mail: info@dba.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent sh., Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. Tel.: (99871) 232-60-47).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Q.Q.Quranboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
siyosiy fanlari doktori, professor

G.O.Sa'diyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

A.T.Jalilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda integratsiya jarayonlari tobora kuchayib borayotgan XXI asr boshida jahonning turli hududlarida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar sharoitida xalqlarning o‘z-o‘zidan tashkillanuvchi boshqaruvchilik qadriyatlarini saqlab qolish hamda kelgusi avlodlarga yetkazish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu jarayonlar davlatlarning o‘ziga xos mahalliy boshqarish tuzilmasi hisoblangan o‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish imkoniyatini bermoqda. Bu esa mazkur boshqaruv tuzilmasining jamiyat hayotida mustaqil institut sifatidagi o‘rni va nufuzi yildan-yilga demokratik tarzda mustahkamlanib borayotganligini ko‘rsatmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida o‘zini o‘zi boshqarish amaliyotining an’anaviy tuzilmalarini saqlab qolish, takomillashtirish orqali fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirokini real ta’minlash va ularning tashkiliy faoliyatiga zamonaviy yondashish kabi ustuvor masalalar keng o‘rganilmoqda. Shu bilan birga, mahalliy boshqaruv tuzilmalari faoliyatining zamon talablariga muvofiqlashtirish va rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlash, ular faoliyatini kengaytirishga qaratilgan maxsus va qo‘shma dasturlar ishlab chiqish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligini ham alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Bunday yondashuv o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirishga oid islohotlar ko‘lamini kengaytirish, sohani yanada rivojlantirishning istiqbolli strategiyalarini belgilash bo‘yicha, ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini oshiradi.

Yangi O‘zbekistonda yuz berayotgan keng qamrovli o‘zgarishlar ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga jadal kirib bordi. Ma’lumki, mamlakatimizda kechayotgan tub islohotlarimiz, samarasi mahalla instituti faoliyatida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Mahallalar faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelyapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Bu ham vakolat, ham mas’uliyat degani mahallalar – davlatimizning eng katta zamini”,¹ deb mahalla instituti faoliyatini yanada takomillashtirish yo‘lida keng imkoniyatlar berilishini alohida ta’kidlab o‘tdilar. Shu boisdan, xalqimizda azaldan jamoa bo‘lib yashash ruhiyatiga munosib, mahallaning oila va jamiyat hayotidagi o‘rni siyosiy nuqtayi nazardan kompleks tadqiq etish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Yangilangan konstitutsiyamizning 127-moddasida “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi”² degan norma bilan mahalla instituti vakolatlari mustahkamlab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

¹ Маҳалла – тизимини янада кучайтириш масалалари муҳокама килинди // Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 2023 йил 26 сентябрь куни маҳаллабай ишлаш тизимини янада кучайтириш чора-тадбирлари муҳокамаси юзасидан видеоселектор йиғилиши // Халқ сўзи. – Тошкент, 2023. 27 сентябрь. – № 202 (8545).

² O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. 127-modda. – B. 95-96 // <https://lex.uz/docs/6445145>.

to'g'risida", 2017-yil 3-fevraldagi PF-4944-son "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 1-martdagi PF-81-son "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" va 2023-yil 21-dekabrda PF-209-son "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti uchun muhim nazariy-metodologik manba hisoblanadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari mahalla institutini takomillashtirishga oid masalalarni o'rganishda davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyevning asarlari va chiqishlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavjud adabiyotlarda mahallaning ko'p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Jumladan, Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr Narshaxiy, Abu Rayxon Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Solih Toshkandiy asarlari mahallalarning ijtimoiy-siyosiy va ahloqiy munosabatlardagi ahamiyatini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan.

Ushbu mavzu doirasida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tadqiqotchilardan A.P.Xoroshxin, V.Nalivkin, M.Nalivkina, G.Arandarenko, K.K.Palen, N.A.Mayev, N.G.Malliskiylarning³ asarlarida o'zbek xalqining jamoaviy turmush tarzi, madaniyati haqidagi ma'lumotlar, asosan, umumlashtiruvchi nazariy xarakterga ega ekanligini ta'kidlash lozim.

Sobiq Ittifoq davrida amalga oshirilgan tadqiqotlarda mahalla tizimining ba'zi bir xususiyatlarini tahlil qilish asnosida, mahalliy aholiga xos bo'lgan milliy boshqaruv an'analari tadqiq etish, milliy jamoa boshqaruv usullaridagi o'zgarishlarga e'tibor qaratilmagan. Ular o'zbek xalqiga xos bo'lgan mahalliy boshqaruv an'analari negizida sovet boshqaruvi siyosatining ta'sirini ochib berishga intilganlar. Jumladan, G.P.Snesarev, R.Ya.Rassudova, O.Brusinalarning ilmiy izlanishlarida yuqoridagilar ko'zga tashlanadi.

Zamonaviy o'zbek mahallalari xususidagi ilk qarashlar xorijlik tadqiqotchi va olimlardan Elin Koduel, Sheyla Marni, Djon Mikelrayt, Deniz Kandiyoti, Daniyel Stivenslarning⁴ olib borgan tadqiqotlarida muammoning u yoki bu jihatlari qisman

³ Ushbu mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

⁴ Ushbu mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

yoritilgan.

O‘zbek olimlari tomonidan ushbu mavzu bilan bog‘liq ayrim nazariy va amaliy muammolar o‘rganilgan bo‘lib, jumladan, Sh.Jalilov, S.Sultonov, A.Saidov, M.Suvonqulov, A.To‘laganov, G.Malikova, G.Ismailovalar mahalla instituti faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlar va qonuniy jihatlarini (huquqiy asoslari), R.Murtazayeva, G.Umarova, R. Shamsutdinov, A.Isxoqov, V.Ishquvvatov, F.Tolipovlar mahalla institutining tarixiy tahlili, uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy kontekstlarda qanday evolyutsiya qilganini (tarixiy); M.Qirg‘izboyev, Q.Quranbayev, A.Begmatov, Q.Nazarov, A.Jalilov, O.Xasanov, M.Quronov, G.Ma‘rufovalar mahallaning ijtimoiy-siyosiy jihatlarini va fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi ahamiyatini (siyosiy), M.Bekmurodov, E.Zoitov, Sh.Sodiqova va X.Xusanovalar⁵ mahallaning jamiyatdagi o‘zgarishlarni hamda ijtimoiy dinamikalarni tahlil qilishi (sotsiologik) natijasida O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlarning bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini ochib berishda muhim rol o‘ynadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tadqiqotlarda o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining ijtimoiy, huquqiy, tarixiy asoslari davriy xususiyatdan kelib chiqib chuqur o‘rganilgan bo‘lsada, mahallaning fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatidagi o‘rni alohida tadqiq etilmagan. Ushbu holat bizga mazkur tadqiqot ishiga qo‘l urish uchun turtki bo‘ldi. Mazkur mavzu qayd etilgan olimlar tomonidan yangi davr nuqtai nazaridan tizimli ravishda to‘liq o‘rganilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichida mahalla institutini takomillashtirish dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston milliy taraqqiyoti bosqichida mahalla institutini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishning nazariy asoslariga doir zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish;

mahalla institutini takomillashtirishning siyosiy-huquqiy asoslarini ochib berish;

mustaqillik yillarida ko‘p konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

“xavfsiz mahalla” tamoyilining asosiy yo‘nalishlarini o‘rganish orqali taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

mahallalarda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirishda yoshlar tarbiyasining o‘rni hamda ahamiyatini tahlil qilish va takliflar ishlab chiqish;

fuqarolik jamiyatini qurishda o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakolatlarini amalga oshirishdagi mavjud muammolarni o‘rganish va yechimlarini tahlil qilish orqali takliflar ishlab chiqish;

Yangi O‘zbekistonda mahalla tizimiga kiritilgan oxirgi o‘zgarishlarni joriy etishga oid faoliyat samaradorligini sotsiologik tahlil qilish.

⁵ Ushbu mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

Tadqiqotning obyektini O‘zbekistonning milliy taraqqiyot bosqichida yangidan shakllanayotgan mahalla instituti faoliyati tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston milliy taraqqiyot bosqichida mahalla institutini takomillashtirishga xizmat qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, mahalla institutiga oid davlat siyosatining ijtimoiy-siyosiy jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, mantiqiylik, umumlashtirish, siyosiy tahlil, prognozlash, sotsiologik so‘rov kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida mahalla instituti fuqarolarning siyosiy ishtiroki va hududiy o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarini mustahkamlovchi “hududiy siyosiy mobillashuv” (mahalliy tashabbuslarni uyushtirish, hududiy muammolarni siyosiy institutlar orqali hal qilishga yo‘naltirish, tashabbuslarini moliyalashtirish bo‘yicha innovatsion modellarni ishlab chiqish)ning asosiy drayveri sifatida ilmiy jihatdan asoslangan;

mahalla institutining siyosiy subyekt sifatidagi rolini faollashtirish orqali mahalliy aholining siyosiy ongi, jamoaviy manfaatlar atrofida uyushishi va qaror qabul qilish jarayonlarida qatnashishini rag‘batlantiruvchi mexanizmlari (institutsional: mahalla kengashlarining qaror qabul qilishda maslahat organi sifatida ishtirokini ta‘minlash, mahalla fuqarolar yig‘inining institutsional maqomini kuchaytirish; jamoatchilik ishtirokini kuchaytiruvchi: mahalla byudjeti yuzasidan aholi fikrini yig‘ish amaliyoti, saylovoldi va saylovdan keyingi muhokama maydonlari) mahallaning klassik ma‘muriy institutdan zamonaviy lokal siyosiy platformaga transformatsiya qilish imkoniyatini ochib berishi dalillangan;

mahalla saylovlarida, jamoat muhokamalarida va fuqarolik tashabbuslarida faollik ko‘rsatgan shaxslar mahallaning siyosiy kapitali sifatida baholanib, ularni mahalla instituti faoliyatida hududiy ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlashda “iqtidorli yetakchilarni aniqlash va siyosiy faollik orqali davlat boshqaruviga integratsiya qilish” mexanizmi orqali hududiy boshqaruv tizimiga bosqichma-bosqich jalb etish, natijada “quyi siyosiy elita”ni shakllantirish orqali davlat siyosatini mahalliy ijtimoiy ehtiyojlarga yaqinlashtirish va siyosiy kadrlar zahirasi joylarda shakllantirish imkoniyati ilmiy jihatdan asoslangan;

mahalla institutining davlat siyosatini hududiy darajada amalga oshirishdagi transformatsion roli “pastdan yuqoriga” tamoyiliga asoslangan inklyuziv siyosiy qarorlar qabul qilish modeli sifatida shakllantirilib, mahallaning siyosiy vakillik platformasi sifatida real ehtiyojlar va fuqarolik tashabbuslarini siyosiy kun tartibiga olib chiqishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari sifatida shakllantirilgan xulosalar, takliflar va tavsiyalar mahalla raislarining vakolatlarini kengaytirish hamda ularning samaradorligini oshirishni ta‘minlovchi tamoyillar dissertatsiya ishining amaliy ahamiyatini tashkil etadi;

tadqiqot natijalari doirasida skopus bazasiga kiruvchi “E3S Web of Conferences” konferensiyasida “Uzbek mahalla: history and modern peculiarities of multiethnic, confessional neighborhoods” mavzusida Scopus bazasida maqola chop

etilgan;

tadqiqot natijalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan № DGU 47398 tartib raqamli “O‘zbekiston milliy taraqqiyoti bosqichida mahalla institutini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari” nomli elektron o‘quv qo‘llanma shaklida tayyorlangan dasturiy ta‘minot yaratildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, yondashuv uslublari, usullar va ilmiy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, ishonchli dalillardan olingani, Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalar hamda jurnallarda chop etilgan maqolalar, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ushbu tadqiqot natijasida olingan ilmiy xulosalardan 2023-2030-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan nazariy va amaliy vazifalarni bajarishda, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarshi organlari to‘g‘risida” va “Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi to‘g‘risida”gi qonunlarni yangi tahrirda ishlab chiqishda, dissertatsiya mavzusi bilan bog‘liq muammolarni ilmiy tadqiq etishda, Oliy ta‘lim tizimida fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvi shakllariga oid mavzularni o‘qitish jarayonida foydalanish mumkin. Shuningdek, siyosiy fanlar bo‘yicha ma‘ruza matnlari yaratish, darslik, o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlashda amaliy manba vazifasini o‘tashi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mazkur dissertatsiyani tayyorlash jarayonida olingan natijalar asosida:

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida mahalla instituti fuqarolarning siyosiy ishtiroki va hududiy o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarini mustahkamlovchi “hududiy siyosiy mobillashuv” (mahalliy tashabbuslarni uyushtirish, hududiy muammolarni siyosiy institutlar orqali hal qilishga yo‘naltirish, tashabbuslarini moliyalashtirish bo‘yicha innovatsion modellarni ishlab chiqish)ning asosiy drayveriga oid takliflardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining V-yo‘nalishida belgilangan “Jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma‘naviy muhitni ta‘minlash masalalari” 23-bandi “Hududlardagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitni ilmiy asosda o‘rganish, baholash hamda doimiy monitoringini amalga oshirish” mavzusida o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlarda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 31-avgustdagi № 348-sonli dalolatnomasi). Natijada mahallalardagi aholining o‘z resurslari asosida taraqqiy etishi, ularning tashabbuslarini ilmiy asosda o‘rganish, baholash hamda doimiy monitoringini amalga oshirishga oid chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi;

mahalla institutining siyosiy subyekt sifatidagi rolini faollashtirish orqali mahalliy aholining siyosiy ongi, jamoaviy manfaatlar atrofida uyushishi va qaror qabul qilish jarayonlarida qatnashishini rag‘batlantiruvchi mexanizmlari (institutsional: mahalla kengashlarining qaror qabul qilishda maslahat organi sifatida ishtirokini ta‘minlash, mahalla fuqarolar yig‘inining institutsional maqomini kuchaytirish; jamoatchilik ishtirokini kuchaytiruvchi: mahalla byudjeti yuzasidan aholi fikrini yig‘ish, saylovoldi va saylovdan keyingi muhokama maydonlari) mahallaning klassik

ma'muriy institutdan zamonaviy lokal siyosiy platformaga transformatsiya qilish imkoniyatini ochib berishiga oid takliflaridan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasi faoliyatida foydalanilgan (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasining 2025-yil 21-apreldagi № 01-27-195-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiya ilmiy xulosalari, taklif va tavsiyalari O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining ish rejasiga kiritilgan tadbirlarni hamda targ‘ibot faoliyatini amalga oshirishda o‘ziga xos ilmiy-uslubiy manba vazifasini o‘tamoqda;

mahalla saylovlarida, jamoat muhokamalarida va fuqarolik tashabbuslarida faollik ko‘rsatgan shaxslar mahallaning siyosiy kapitali sifatida baholanib, ularni mahalla instituti faoliyatida hududiy ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashda “iqtidorli yetakchilarni aniqlash va siyosiy faollik orqali davlat boshqaruviga integratsiya qilish” mexanizmi orqali hududiy boshqaruv tizimiga bosqichma-bosqich jalb etish, natijada “quyi siyosiy elita”ni shakllantirish orqali davlat siyosatini mahalliy ijtimoiy ehtiyojlarga yaqinlashtirish va siyosiy kadrlar zahirasini joylarda shakllantirishga oid amaliy takliflar hamda tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tomonidan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining 2024-yil 29-apreldagi №01-06-10/589-sonli dalolatnomasi). Natijada Mahallalarda “Iqtidorli yetakchilarni aniqlash va siyosiy faollik orqali davlat boshqaruviga integratsiya qilish” mexanizmi orqali hududiy boshqaruv tizimiga bosqichma-bosqich jalb etishga oid chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi;

mahalla institutining davlat siyosatini hududiy darajada amalga oshirishdagi transformatsion roli “pastdan yuqoriga” tamoyiliga asoslangan inklyuziv siyosiy qarorlar qabul qilish modeli sifatida shakllantirilib, mahallaning siyosiy vakillik platformasi sifatida real ehtiyojlar va fuqarolik tashabbuslarini siyosiy kun tartibiga olib chiqishdagi o‘rniga oid ilmiy takliflaridan Respublika mahallalar uyushmasi faoliyatidagi targ‘ibot-tashviqot tadbirlarida foydalanilgan (O‘zbekiston mahallalari uyushmasining 2025-yil 9-apreldagi № 04-01/18/127-sonli dalolatnomasi). Natijada O‘zbekiston mahallalari uyushmasining mahalla faoliyatining samaradorligini aniqlashga oid indikator talablari va institutsional tizim sifatidagi vakolatlarini amalga oshirishga oid takliflar berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 22 ta ilmiy ish chop qilingan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalari chop qilish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 14 ta maqola, (shundan 6 tasi respublika va 8 ta maqola xorijiy jurnallarda) hamda 7 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari tezislarida e’lon qilingan. Shuningek, 1 ta maqola “E3S Web of Conferences” skopus bazasiga kiruvchi xalqaro konferensiyada e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uch bob, yetti

paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 162 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi “**Mahalla instituti faoliyatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan. Ushbu bobning “**O'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tahlil etishda zamonaviy yondashuvlar**” nomli birinchi paragrafida mahalla instituti faoliyatini o'rganishning nazariy metodologik, siyosiy-huquqiy asoslari bilan bog'liq asosiy ilmiy kategoriyalar ularning mazmun-mohiyati, darajalari va xususiyatlari, O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyat siyosiy boshqaruvidagi ishtiroki, mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanishi ochib berilgan.

Mahalla o'zbek xalqining ijtimoiy hayotida azaldan jamoa bo'lib yashashning eng oliy shakli bo'lib kelgan. Birgina tarixiy ilmiy manba bo'lgan “Avesto” misolida katta patriarxal oila – “nmana”larning mavjudligi va uning atrofida kishilarning birlashuvi mahallaning qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Mahalliy jamoalarni, mahalliy darajada o'zini o'zi boshqarishni tashkil etishning bu shakli asrlar osha behisob sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib yashab kelmoqda. Qadimgi Xorazm hududidagi Ko'zaliqir va Xazoraspeda olib borilgan tadqiqotlar natijasida 20 ta xonadon istiqomat qiladigan turar joy majmuyi topilgan. Ilk o'rta asrlarda mavjud qator shahar va qo'rg'onlarda aholi zich yashaydigan mavzellar mavjud bo'lgan. Mavjud adabiyotlarda mahallaning ko'p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Masalan, “Mahalla” atamasi ilk bor o'rta asr mualliflaridan biri Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida VIII asr boshlaridagi Buxoroning ichki kvartallarini belgilash uchun qo'llanilgan⁶. Alisher Navoiy o'zining “Hayrat ul-Abror” asarida mahallani “mahalla shahar ichidagi shaharcha”dir⁷ deb ta'riflaydi. Shuningdek, bobimiz Amir Temur barpo etgan markazlashgan davlatda ham temirchilar, qurolsozlar, tikuvchilar, charmdo'zlar, kulollar, quruvchilar va boshqa hunarmandlar bir joyda mehnat qilib hayot kechirganlar. Bu haqida “Temur Tuzuklari”da yozilishicha, buyuk bobimiz Amir Temur o'zi barpo etgan bepoyon va qudratli saltanatni boshqarishda mahalla mutasaddi shaxslariga tayangan. Ular bilan doimiy muloqot, mashvaratda va maslahatda bo'lgan, kezi kelganda ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlagan va fikrlariga tayanib ish tutgan. Asarda, jumladan, shunday

⁶Абу Бакр Мухаммад Ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. – Т., 1993. – Б. 52; Наршахи Абу Бакр Мухаммад. История Бухары / Перевод с персидского Н.Лыкошина. – Т., 1897. – С. 69-72.

⁷Abduraxmonova G., Abduramanov X. “Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti”. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – B. 286.

deyiladi: “Tajribamdan ma’lum bo’ldiki, kengash ikki turli bo’lur. Biri – til uchida aytilgani, ikkinchisi –yurakdan chiqqani. Til uchida aytilganini shunchaki eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa jon qulog’im bilan eshitardim va dilimga joylardim”⁸.

Mahallalarning shakllanishi va ularda jamoa bo’lib yashash ruhining ustunligi, davlatchilik poydevorini mustahkamlashda mahallalarning o’rni muhim ahamiyatga ega ekanligi to’g’risida A.Saidov “Eramizgacha 1 ming yillikning birinchi yarmida O’rta Osiyoda “Mustaqil mazmunga ega jamoa” sifatidagi ijtimoiy tashkilot mavjud bo’lib, odamlar o’z hayotlarini ixcham maskanlar-mahallalar shaklida qurganlar”,⁹ – deb yozadi. Muallif mahalla atamasiga to’xtalar ekan, “Mahalla – arabcha “mahal”, “mahallatun” so’zlaridan kelib chiqqan bo’lib, “birgalikda” – degan ma’noni anglatadi, deb ta’kidlaydi. Haqiqatdan ham mahallalarning o’zagi kishilarning jamoalarga birlashib yashash tajribasining ilk kurtaklari bilan bog’liqdir. Mamlakatimizda qadimdan yashovchi ko’plab elatlarning jamoalarga birlashib yashash odatining o’ziga xos xususiyatlaridan Qoraqalpoqlarda “Koshebiy”lar-mahalliy jamoalar, Xorazmda “elat”, ya’ni jamoalar xuddi mahalla kabi faoliyat olib borganliklari, ko’p yillar davomida o’zining asl mohiyatini yo’qotmasdan, aksincha, to’ldirib kelayotganligi bilan ahamiyatlidir. Shu o’rinda huquqshunos olimi S.Adilxodjayevaning ilmiy fikriga asosan, mahallaning jamoatchilik instituti sifatida kelib chiqishi va taraqqiy etishi uzoq davrni o’z ichiga oladi. Qadimgi Baqtriya, So’g’diyona, Xorazm hududlarida magistral kanallarning qurilishi, sug’orish ishlarining yo’lga qo’yilishi mahalliy jamoa zimmasida bo’lgan. Butun tarixiy davr mobaynida mahalla insonlar bilan birga, ularning yaxshi va yomon kunlarida hamnafas bo’lib kelgan, muhtojlar, zaiflarga yordam qo’lini cho’zib kelgan¹⁰. Bundan shuni anglash mumkinki, mahallalar qadim-qadimdan aholini birlashtirish, safarbar etish kabi vazifalarni bajarib, ijtimoiy jarayonlarda muhim ahamiyatga ega bo’lib kelganligi oydinlashadi. Lekin davr nuqtayi nazardan ushbu tuzilma tez-tez siyosiy o’zgarishlarga majbur bo’lganligini ham alohida ta’kidlab o’tish kerak.

Dissertatsiyada mahalla instituti faoliyatini o’rganishning nazariy-metodologik asoslari ijtimoiy-siyosiy mohiyatini tadqiq etishda tarmoqlararo yondashuv metodidan foydalanish maqsadga muvofiqligi ta’kidlangan. Shundan kelib chiqqan holda, mahalla institutini o’rganishning tarixiy yondashuvlari qiyosiy, tanqidiy tahlil etilgan. Mamlakatimiz barcha sohalarida bo’lgani kabi, mahallaning nufuzini yanada takomillashtirish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirila boshlandi. Necha ming yillar davomida o’zining asl qonuniyatlarini va tarixiy siyosiy qadriyatlarini yo’qotmagan mahalla instituti, milliy taraqqiyot bosqichida tom ma’noda yangicha shakl-shamoil asnosida yangi maqomga ega bo’ldi. Birinchi Prezident I.Karimov o’zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida mahallaning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida quyidagi fikr berganida haq edi. “Mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog’liq ko’plab qadriyatlar, udum va an’analarimiz qayta tiklanib,

⁸ Амир Темур. Темур тузуклари. – Тошкент: Ёшлар, 2018. – Б. 22.

⁹ Саидов А. Маҳалла – умумий уйимиз // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2003. – № 1 (21). – Б. 7.

¹⁰ Адылходжаева С. Благополучие маҳалли – залог стабільности государства // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2003. – № 3. – Б. 107.

zamon talablari asosida boyib bormoqda. Shu bilan birga, mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirilmoqda, ular o'zini o'zi boshqarish idorasi, haqiqiy demokratiya darsxonasi sifatida keng ko'lamli faoliyat olib bormoqda"¹¹. Ushbu jarayonlar 2017-yildan boshlab mamlakatimiz hayotidagi ijtimoiy-siyosiy tub o'zgarishlar Yangi O'zbekistonda o'zini o'zi boshqaruv organlari faoliyatini tahlil etishdagi zamonaviy yondashuvlarni o'rganishda yangi jarayonlarni boshlab berdi. Jumladan, A.X.Saidov tomonidan "Mahalla va o'zini o'zi boshqarish organlari: erkinlashtirish va zamonaviylashtirish // Demokratlashtirish va inson huquqlari"¹² nomli ilmiy risolasida mahallalar faoliyati fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o'rni va ahamiyatini o'zida aks ettirgan. Sh.Jalilov muallifligida yozilgan "Mahalla yangilanish davrida: o'zini o'zi boshqarish idoralari tajribasidan"¹³ nomli kitobida mahalla faoliyatini tahlil etishning funksional vazifalari, rivojlanish bosqichlari haqida so'z borsa, R.Murtazayevaning "Mustahkam oila-davlat va jamiyat asosi"¹⁴ nomli maqolasida oilada va mahalla hayotida ayollarning o'rni masalasi, T.Egamberdiyeva, I.Siddiqov, O.Toshtemirovlarning "O'zbekistonda mustaqillik yillarida mahalla institutining isloh etilishi"¹⁵ nomdagi ilmiy-ommabop risolalarida mustaqillik yillarida mahallalarning siyosiy takomillashuvi, ayollarning haq-huquqlari va muammolari o'rin olganligi ularning ilmiy tadqiqot izlanishlarining natijasidir.

Sotsiolog X.Xusanova "O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofazalashning tartibga solinishida mahalliy o'zini o'zi boshqaruvning roli"¹⁶ nomli ilmiy tadqiqot ishida mahalla institutining aholini ijtimoiy himoya qilish jarayonidagi ishtiroki masalasini sotsiologik tomondan tahlil qilgan. V.Ishquvvatov va F.Tolipovlar muallifligidagi "Mahalla: o'tmishda va bugun" nomli monografiyada mahallaning shakllanishi, siyosiy rivojlanish bosqichlari, mustaqillik yillarida uning siyosiy, huquqiy maqomining kengayishi, mazkur tashkilotning bugungi kundagi faoliyati yoritilgan. Yuqoridagi olim va olimalarning ilmiy izlanishlari o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tahlil etishda zamonaviy yondashuv uchun xizmat qiladi. O'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tahlil etishda fuqarolar yig'inining raisining faoliyat mezonini ham muhim ahamiyatga ega, chunki mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fuqarolar yig'inining raisi vakolatlarini kengaytirish masalalari ham dolzarbdir.

Bobning ikkinchi paragrafi "**Mahalla institutini takomillashtirishning siyosiy-huquqiy asoslari**" deb nomlanadi. Ushbu paragrafda – O'zbekiston Respublikasi o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritib o'zini suveren demokratik, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan taraqqiyot yo'lini tanlaganini e'lon qilganidan so'ng, mahalla

¹¹ Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 59.

¹² Саидов А.Х. Маҳалла ва ўзини ўзи бошқариш органлари: эркинлаштириш ва замонавийлаштириш // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – Т., 2000. – № 1. – Б. 11-17.

¹³ Жалилов Ш. Маҳалла янгилашни даврида: Ўзини ўзи бошқариш идоралари тажрибасидан. – Тошкент, 1995.

¹⁴ Муртазаева Р.Х. Мустаҳкам оила-давлат ва жамият асоси. Илмий аёл – мустаҳкам оила таянчи. // Минтақавий илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2012. 13 апрел. – Б. 10-17.

¹⁵ Эгамбердиева Т., Сиддиқов И., Тосҳтемиров О. Ўзбекистонда мустақиллик йилларида маҳалла институтининг ислоҳ этилиши. – Фарғона, 2018.

¹⁶ Хусанова Х. Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий муҳофазалашнинг тартибга солинишида маҳаллий ўзини ўзи бошқарувнинг роли // Социология фанлари ном.илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... автореферати. – Тошкент, 2009.

institutini siyosiy-huquqiy jihatlari o'zgarib, takomillashishi tarixiy va siyosiy nuqtayi nazaridan asoslab berilgan. Jahonda yuz berayotgan shiddatli siyosiy o'zgarishlar, fuqarolarga demokratik ruhda davlatlarning mahalliy boshqarish tuzilmasi hisoblangan o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida o'z fuqarolik pozitsiyalaridan kelib chiqqan tarzda, faol ishtirok etish imkoniyatini bermoqda. Bu esa mazkur noyob tuzilmaning davlatlarning boshqaruv sohalarini demokratlashtirishda hamda mustaqil institut sifatidagi o'rni va nufuzi tobora ortib borayotganligini tasdiqlamoqda. Ayniqsa, mahalla institutini takomillashtirish borasida va siyosiy-huquqiy asoslarini mustahkamlashda dunyoning ilg'or demokratik davlatlari bilan xalqaro tajriba asosida hamkorlik masalalari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib bermoqda. Shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni birinchi ustuvor yo'nalishining 1-maqsadi: "Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish"¹⁷ deb nomlanib 100 ta maqsadning 1-maqsadi sifatida e'tirof etilishini o'z ham davlatimiz siyosatining asosi mahalla ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagi sohaga oid farmon, qonun va qarorlar davlat hamda jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqliklarni takomillashtirishda oddiy fuqarolarni ham davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etishlari uchun huquqiy asos sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi "**Mustaqillik yillarida ko'p millatli va ko'p konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari**" sarlavhasi ostida yoritilgan bo'lib, ushbu paragrafda bugungi kunda mahallalar faoliyatini yanada modernizatsiyalash, faoliyat doirasida ko'lamini kengaytirish va ko'p millatli mahallalarning millatlararo totuvlikdagi ahamiyati hamda o'rni kabi masalalar tadqiq qilingan. Mamlakatimizdagi mustaqil rivojlanish sharoitida ro'y berayotgan chuqur ijtimoiy o'zgarishlar o'zbek xalqi mentalitetida yangi milliy davlatchilikni qaror toptirish, fuqarolik jamiyatini shakillantirishda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini modernizatsiyalashni hayotni o'zi taqazo etmoqda. Demokratik prinsiplardan biri bo'lmish tolerantlik nafaqat davlatlar, balki individual tarzda shaxslar darajasida ham tobora yaqqol ravishda yuzaga chiqib bermoqda. Bir mahallada turli hil konfessiyali qo'shnilar jamoasini etnik bag'rikenglik asnosida, ahil-inoq tarzda hayot kechirishi va ular o'rtasida sotsial munosabatlarga ko'proq kirishish mentalitet nuqtayi nazardan aynan bizning sharoitda tolerantlik yoki millatlararo totuvlikning yuqori bosqichidan dalolat beradi. Bugungi globallashuv sharoitida dunyodagi aksariyat davlatlar ko'p millatli, ko'p konfessiyali xarakterga ega. Tabiiyki, mamlakatimiz ham shunday davlatlar qatoriga kirsada, yurtimizda yashayotgan turli millat vakillari o'rtasidagi tinch-totuvlik hamda millatlararo hamjihatlikni saqlab qolishga hech qanday to'sqinlik qilmaydi. Bugun dunyoda shunday davlatlar bor-ki, ularda parokandalik mavjud, buning asl sababi millatlararo manfaatlarning bir tomonga og'ishi bu orqali esa ozchilik millat vakillarining diniy, ijtimoiy haq-huquqlarining oyoq osti bo'layotganidir. Bunday holatlar, Yangi O'zbekistonni yanada hushyor

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022-йилдаги ПФ-60-сон "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони. URL: <https://lex.uz/docs/5841063>.

bo'lishga, millatlararo totuvlik tamoyillarini izchillik bilan davom ettirishga undashi muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillik yillarida milliy madaniy markazlarning 120 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoni berildi. Respublika baynalminal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markaz, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta do'stlik jamiyati faoliyati O'zbekistondagi barcha millatlar va elatlarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlarini, an'ana hamda urf-odatlarini asrash va har tomonlama rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishda muhim o'rin tutadi¹⁸. Tadqiqot ma'lumotlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, mahallaning tinchlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik tamoyillari o'zga millat vakillari bilan fuqarolik kelishuvini mustahkamlashdagi o'rni muhim ekanligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning "**Mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutining milliy xususiyatlari**" deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi paragrafi "**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining milliy demokratik institut sifatidagi o'rni**" deb ataladi. Shuni alohida qayd etish kerakki, garchi, mahalla mamlakatimizda ko'p asrlardan buyon mavjud bo'lsa-da, O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyingina u munosib ijtimoiy-huquqiy maqomga ega bo'ldi. Mahallalarning qayta shakllantirilganligi aholi keng qatlamlarini davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga faol jalb etishga, siyosiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy demokratik qadriyat hisoblanadi¹⁹. Mamlakatimiz mustaqil rivojlanishining dastlabki kunlaridanoq fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatimiz hayotidagi roli va ahamiyatini oshirishga katta e'tibor qaratildi. Mahallalar tarixiy jihatdan to bugungi kungacha, marosimlarni birgalikda o'tkazish, o'z hududini obodonlashtirish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, barcha an'anaviy tartib-taomillarni bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, urf-odatlariga rioya qilish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdek mahalliy kundalik ahamiyatga ega vazifalardan Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini yangi bosqichga olib chiqishdek, tom ma'noda "Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish"ning yuqori darajasiga yetib keldi. Mahalla instituti chinakamiga siyosiy institut sifatida boshqariluvchi emas, balki vakolatli o'zini o'zi boshqaruvchi mustaqil organga aylandi.


Ayniqsa, 1992-yilda "Mahalla" Respublika xayriya jamg'armasi tashkil etilganligi²⁰, 1993-yilda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"²¹ gi qonun qabul qilinganligining o'zi ham mahallalarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanganligining yorqin dalil bo'la oladi. Shu o'rinda boshqaruvning ushbu shakliga tegishli vakolatlar to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish uchun quyidagi chizmani taklif etamiz.

¹⁸ Рўзиев З., Исмаилова Г. "Фуқаролар ўзини-ўзи бошқариш органлари фаолиятининг норматив-ҳуқуқий таҳлили". – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси, 2016. – Б. 70.


¹⁹ Одиқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 50.

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Маҳалла хайрия жамғармасини ташкил этиш тўғрисида"ги Фармони // Халқ сўзи. 1992. 2-сентябр.

²¹ "Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида" ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999. – № 5. 110-модда.



2.1-rasm. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining bugungi kundagi vazifalari.




2.2-rasm. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari.

Aynan mahallalarda shakllangan milliy o'zimizgagina xos bo'lgan demokratiyani izchil targ'ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va an'analarini keng ommalashtirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mahallaning rolini o'rganish, tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi. Bugun o'zining mustaqil boshqaruv faoliyatiga ega bo'lib borayotgan mahalla o'zini o'zi boshqarish organlari sifatida fuqarolik jamiyatini shakllantirishda juda muhim institut bo'lib, oxirgi yillarida ushbu institut faoliyatini yanada rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, ta'bir joiz bo'lsa, "Yangi O'zbekiston-yangi mahalla" iborasining paydo bo'lganligini o'zi ham bu sohada tub o'zgarishlar yuz berganligidan dalolat beradi. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib borayotgan mutasaddi rahbarlarning huquqiy hamda siyosiy bilimni oshirish va fuqarolar yig'inlari raislarni mahalliy hokimiyat organlari bilan teng huquqlilik asosida faoliyat olib borishlarining qonuniy asoslari ishlab chiqilganligini ham alohida ta'kidlab o'tish kerak.

Ushbu bobning 2-paragrafi **"Xavfsiz mahalla" tamoyilini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari**" deb nomlanadi. Ushbu paragrafda dunyoda globallashtirish va integratsiya jarayonlari tobora kuchayib borayotgan XXI asrda jahonning turli hududlarida sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sharoitida xalqlarning tinchligi, milliy va ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolish hamda kelgusi avlodlarga yetkazish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Yuqorida ta'kidlangan xalqlarning tinchligi masalasini avvalambor o'zini o'zi boshqarish organlari, mahalla va oilalar tinchligidan boshlash, yurtimiz tinchligini ta'minlash imkoniyatini beradi. "Xavfsiz mahalla" konsepsiyasining jamiyatimiz osoyishtaligini ta'minlashdagi ahamiyati siyosiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Shu bilan birga, "Xavfsiz mahalla" faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos rivojlanish istiqbollari haqida fikr-mulohazalar, tavsiyalar bildirilgan hamda ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan. Yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, xalqimizning xotirjam mehnat qilishini ta'minlashda mahalla ahlining xizmati katta. Albatta, jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar barcha mahallalarda ham talab darajasida, deb bo'lmaydi. Masalan, Respublikada 2023-yilda 104096 ta jinoyatchilik holatlari sodir etilgan bo'lsa, ushbu jinoyatlarning 87,8 foizi erkaklar, 12,2 foizi ayollar hissasiga to'g'ri kelmoqda. 2022-yilga kelib esa, mahallalarda faqatgina oilaviy kelishmovchiliklar sababli yaqin qarindoshlar bir-biriga nisbatan sodir etilgan qotilliklar soni 200 ga yaqin bo'lgan. Tizimdagi muhim yangiliklardan biri, bu 2018-yil 1-yanvardan e'tiboran barcha mahallalarda "Kirish, chiqish nazorat punktlari" tashkil etildi²². 2019-yil yakunlari bo'yicha mamlakatdagi 1797 ta (19,7 foizi) fuqarolar yig'inida jinoyatchilik ko'rsatkichlari o'sgan bo'lib, nisbatan eng ko'p Samarqand (16,6 foizi), Farg'ona (13,5 foizi), Namangan (10,9 foizi) va Toshkent (10,3 foiz) viloyatlarida kuzatilgan.

²² Ишқувватов В.Т. Ўзбекистонда ўзини ўзи бошқариш органларининг ривожланиш тарихи. Тарих фанлари доктори диссертация автореферати. – Тошкент, 2020. – Б. 28.

Siz o'z mahallangizni xavfsiz mahallalar qatoriga qo'sha olasizmi?



■ Javob berishga qiynalaman ■ Qisman ■ Yo'q ■ Ha

Mavzu yuzasidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotimizda "Siz o'z mahallangizni xavfsiz mahallalar qatoriga qo'sha olasizmi?" degan savolga respondentlarning 71 foizi "ha" degan javobni berishgan. Fikrimizcha, respondentlarning aksariyati o'z mahallasini xavfsiz deb e'tirof etganligining o'zi mamlakatimizdagi "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining ijrosi bilan bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Statistik tahlilga ko'ra, respublikada bironta ham jinoyat sodir etilmagan mahallalar soni yildan-yilga ko'payib bormoqda jumladan; 2021-yilda 9314 ta mahallalardan 2639 tasida bironta jinoyat sodir etilmagan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan respublikamizdagi barcha mahallalarni jinoyatdan holi hududga aylantirish borasidagi "Xavfsiz mahalla", "Xavfsiz xonadon" tizimi asosida ish tashkil etilganligi o'z natijasini berganligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Respublikamizdagi barcha mahallalar (9134) kriminogen vaziyatga qarab 3 ta toifaga ajratildi: Qizil (3047 ta), Sariq (2682 ta) va Yashil (2639 ta). Poytaxtda 72 ta, qolgan hududlarda esa 830 ta mahallada og'ir kriminogen vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun "mahallabay" dasturlari ishlab chiqilib, ijroga qaratildi. Mahallalardagi ijtimoiy ma'naviy muhitning sog'lom bo'lishi va tinchlikning ta'minlanishi "Oila-Mahalla-Jamiyat" o'rtasidagi o'zaro hamkorlik masalalariga bog'liqdir. Bu borada "Sog'lom oila – sog'lom jamiyat" g'oyasini hayotga tatbiq etishni nazarda tutuvchi "O'zbekiston Respublikasida Oila institutini yanada mustahkamlash konsepsiyasi" loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu loyihadan ko'zlangan maqsad oila va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirishdir. Shuningek, fuqarolar yig'ini raisiga bir qator qo'shimcha huquqlar berildi. Jumladan, fuqarolar yig'ini raisi tegishli hududdagi profilaktika inspektori faoliyatiga baho berish hamda uni rag'batlantirish yoki unga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan jazo choralarini qo'llash bo'yicha Qoraqalpog'iston Ichki ishlar vazirligi, hududiy ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda boshqarmalarga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritish huquqiga ega bo'ldi, bunday vakolatni olgan mahalla raisi,

albatta, profilaktika inspektori o‘rtasidagi “fors-major” holatlarga barham berib, mahallalardagi “xavfsiz mahalla” tamoyilini amalga oshirishda profilaktika inspektoriga yuklatilgan vazifalarni mahalla raisi tomonidan talab qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlashimiz kerak. Mahalla institutining “xavfsiz mahalla” tamoyili yuzasidan ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bilan uzluksiz, tizimli hamkorligini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

“Xavfsiz mahalla” tamoyili asnosida mahallabay ishlash bo‘yicha hamkorlik mexanizmlarini ta’kidlab o‘tamiz. Birinchidan, sektor rahbari har bir yoshning muammosini hal etish chorasini ko‘radi; ikkinchidan, profilaktika inspektori profilaktik hisobga oladi, yakka tartibda shug‘ullanadi; uchinchidan MFY raisi har bir notinch oila va jinoyatchilikka moyil bo‘lgan oilalarning ahvolidan xabardor bo‘lib boradi; xalq deputatlari tuman, shahar kengashida ko‘rib chiqiladi, yoshlar ishlari agentligida muvofiqlashtirish, “Bir nuroniy – beshta yoshga murabbiy” tamoyili asosida keksalarning mahalla yoshlari tarbiyasiga ta’sir kuchini ko‘rsatish kabi mahallalar tinchligi va osoyishtaligiga erishishni ko‘zda tutadi.



Ushbu jadval: “Harakatlar strategiyasi sarhisobi” risolasidan olindi²³.

Tadqiqotchining ta’kidlashicha, mamlakat rahbarining kelgusida “Nuroniy” va “Mahalla” jamg‘armalarining xodimlar shtatlarini ko‘paytirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jamiyatimiz hayotida ularning o‘rni va mavqeyini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘riladi²⁴, deb ta’kidlagani kelgusida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Yangi O‘zbekistonda mahalla instituti faoliyatini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari**” deb nomlangan. Bobning “**Mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda yoshlar tarbiyasining o‘rni va ahamiyati**” nomli birinchi paragrafida mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan va ma’naviy sohada aniq mexanizmlar natijalari tahliliga tayangan holda yoshlarni islohotlarning faol ishtirokchisiga, demokratik jarayonlarni rivojlantiruvchi kuchiga aylanishi omillari

²³ Туляков Э. Харакатлар стратегияси сарҳисоби. Рисола. Тараққиёт стратегияси маркази жамоаси. – Тошкент, 2022. – Б. 45.

²⁴ Шавкат Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 12.

va asosiy yo‘nalishlari o‘rganilgan. Ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalla institutining yoshlar tarbiyasidagi faoliyat mezoni tahlil qilingan.

3.1-jadval.

FHDYO organlari tomonidan Respublika bo‘yicha ajrimlar soni²⁵.

№	O‘zbekiston Respublikasi	2000-yil 19903 ta	2010-yil 17794 ta	2022-yil 20798 ta
1	Toshkent shahri	4595	3537	2 537
2	Samarqand viloyati	1805	1857	2 190
3	Toshkent viloyati	2576	2218	2 167
4	Farg‘ona viloyati	2198	1473	2 109
5	Surxondaryo viloyati	853	500	2 079
6	Namangan viloyati	1196	1675	1 836
7	Qashqadaryo viloyati	631	796	1 720
8	Buxoro viloyati	1245	853	1 184
9	Qoraqalpog‘iston R	640	870	906
10	Xorazm viloyati	698	915	860
11	Andijon viloyati	1086	1368	800
12	Sirdaryo viloyati	640	638	778
13	Jizzax viloyati	651	549	699
14	Navoiy viloyati	1089	545	582

Davlat statistika qo‘mitasining bergan ma’lumotiga ko‘ra, 2021-yilning 1-iyun holatiga FHDYO organlari tomonidan Respublika bo‘yicha 16098 ta ajrim qayd etilgan bo‘lib, mos holda 2022-yilning 1-iyun holatiga esa 20798 tani tashkil etgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, Respublikamizda ajrimlar soni tobora ko‘payib bormoqda. Ajrimlar bo‘yicha Toshkent shahri, Samarqand viloyati, Toshkent viloyati, Farg‘ona viloyati va Surxondaryo viloyatlari “peshqadamlik” qilmoqdalar.

Yoshlar masalasiga oid qarashlar dastlab qadimgi yunon mutafakkirlari Arastu va Aflotun asarlarida uchraydi. Ularda yoshlarni vatanparvarlik tuyg‘usida tarbiyalash to‘g‘risidagi fikrlar talaygina. Arastu qonunlarni ishlab chiqishda yoshlar tarbiyasi masalasiga jiddiy e’tibor qaratish lozim, aks holda bunday davlatning kelajagi bo‘lmaydi deb hisoblagan²⁶. Bunda yoshlar muayyan davlat barqarorligini ta’minlovchi kuch sifatida e’tirof etilganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu yondashuvlar keyinchalik davlat siyosatida yoshlarning o‘rni va ahamiyatini aniqlashning nazariy metodologik asoslari uchun zamin bo‘ldi. Shunga o‘xshash yondashuv Aflotun qarashlarida ham uchraydi²⁷.

²⁵ <https://t.me/davxizmat>, <https://stat.uz/uz>.

²⁶ Аристотель. Политика. – М.: Мысль, 1983. – С. 628.

²⁷ Платон. Государство. – М.: Мысль, 1994. – С. 342.

XXI asrda mahallalarda yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining bosh bo‘g‘iniga aylanib ulgurdi. Bunday holat esa erkin, demokratik fuqarolik jamiyatida yoshlarga oid davlat siyosati yoki mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish masalasi qanday amalga oshirilmoqda, bu borada qanday muammolar bor, ularni qanday hal qilishimiz kerak degan savollarga javob izlash har birimizning fuqarolik burchimizdir. Bu borada ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning roli va ahamiyati kundan kun oshib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarni modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlari yangi bosqichda jadal olib borilmoqda. Mahallalarda (yoshlar o‘rtasida) ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish borasida quyidagi asosiy omillarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq:

1. Huquqiy yondashuv, siyosat subyektlari tomonidan, me’yoriy-huquqiy normalarni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur yondashuv doktrinal xususiyatga ega. Bunday yondashuvda yoshlarga doir siyosat tor ma’noda tushiniladi.

2. Sotsiologik yondashuv ijtimoiy siyosatning muhim elementi sifatida qaraladi.

“Ma’nan barkamol, jismonan sog‘lom, jamiyatda demokratik islohotlar davrida ta’lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta’minlash, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, yosh oilalarga ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish ijtimoiy siyosatning asosiy qirralarini aks ettiradi. Mazkur siyosatni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari subyekt sifatida faoliyat yuritishadi”²⁸. Shuningdek, mahallalarda ijtimoiy ma’naviy muhit borasida yoshlarning siyosiy bilim masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, yoshlar uchun eng jiddiysi – bu siyosiy va huquqiy madaniyat pastligi, o‘z mahallasidagi tadbirlarga loqaydligi, saylov jarayonlariga beparvolik va chetga chiqib qolish holatidir. Buning uchun jamiyatda mavjud bo‘lgan stereotiplarni o‘zgartirish kerak, chunki mahalla faoliyatida ishtirok etish yoki ishtirok etmaslik emas, balki jamiyatga daxldorlik hissini his qilishdadir. Uni bartaraf etish uchun yoshlarni konstitutsiyaviy haq-huquqlari bilan tanishtirish, va ushbu huquqni amalga oshirish mexanizmini namoyish etish kerak. Fikrimizcha, mahalladagi ijtimoiy ma’naviy muhitni sog‘lom bo‘lishi uchun, aholi va yoshlarni siyosat bilan qiziqmagan qatlamlarini faollashtirish zarur bu esa davlatning siyosiy potensialini yuqoriga chiqishiga sabab bo‘ladi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi “**Fuqarolik jamiyatini qurishda o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakolatlarini amalga oshirishdagi mavjud muammolar va yechimlar**” deb nomlanib, unda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida fuqarolik jamiyatini yuqori bosqichga olib chiqish, demokratiyaning uzluksizligini ta’minlash muhim ahamiyatga egadir. Bu paragrafda o‘zini o‘zi boshqarish organlari va undagi tuzilmalarning davlatimiz boshqaruviga ta’sirchanligini kuchaytirish, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lmish, mahalla raisi va undagi boshqaruv tuzilmalarining qay darajada vakolatlarga ega ekanliklari,

²⁸ Никитенко А.И. Понятие молодежной политики как политологической категории. Государственное муниципальное управление, 2016. – № 4.

mahalla raisi bajarishi zarur bo'lgan, birinchi navbatda qilinishi kerak bo'lgan vazifalar tavsiyalar asosida faoliyat yo'nalishlari bayon etilgan. Jumladan, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z faoliyatini hududiy prinsip bo'yicha amalga oshiradi hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshiriladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining asosiy vazifasi fuqarolarni mahalliy ahamiyatga bog'liq masalalarni hal qilishda mustaqil ravishda faoliyat qilishini ta'minlashdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini huquqiy himoya qilish kafolatlanishi, ya'ni ularning faoliyatiga asossiz aralashish, ularga taalluqli bo'lmagan vazifalarni yuklash yoki bajarishga majburlash; ularni vazifalari va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilishlar hamda boshqa tadbirlarga jalb qilish mumkin emasligi; ularning qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan vazifa, buyruq, farmoyish yoki boshqa topshiriqlarni bajarishni rad etish huquqiga ega ekanligi; ulardan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan ma'lumotnoma, tahliliy material va statistik ma'lumotlarni, shu jumladan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor ma'lumot hamda materiallarning taqdim etilishini talab qilish va fuqarolar yig'inlari balansida bo'lgan binolarni boshqa shaxslarga biriktirish yoki asossiz ravishda olib qo'yish taqiqlanishi; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari o'ziga nisbatan qabul qilingan qarorlar va harakatlar (harakatsizlik) ustidan yuqori turuvchi mansabdor shaxslarga, prokurorga yoki sudga belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega ekanligi, fuqarolar yig'inlarining raislari va ularning maslahatchilarining mahalliy hokimiyat organlari bilan teng huquqlilik asosida faoliyat olib borishlarining qonuniy asoslari ishlab chiqilgan bo'lsada, afsuski, ijro masalasida muammolar mavjud.

Yuqoridagi muammolarning yagona sababi, har bir mahallaning moliyaviy qaramligi yoki moliyaviy mustaqil emasligidir. "Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat "beshlik tizimi" tashkil etildi. Lekin ularning o'zaro muvofiq ishlashida kamchiliklar, juda ko'p takrorlanishlar bor. Ijtimoiy maqsaddagi mablag'lar ba'zan samarasiz yo'naltirilmoqda. Ehtiyojmand aholining masalasini hal qilish viloyat va respublika idorasiga bog'lanib qolgan. Mahalla xodimlari faoliyatini baholashning yagona mezonini yo'q. Ularning ko'p vaqti "qog'oz to'ldirish" va majlislarga ketyapti". Eng asosiy jihati, amaldagi "beshlikka" soliqchi va ijtimoiy xodim ham qo'shib, birgalikda ishlaydigan "mahalla yettiligi" bo'ldi. Jumladan, aholini 3 ta daftarga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar mahallaning o'zida, kollegial hal qilinadi. "Hozirgi tahlikalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo'limiz – mahalla, mahalla, mahalla va bir marta mahalla"²⁹ – deya ta'kidladi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Sirdaryo viloyatiga tashrifi davomida Sayxunobod tumani "Ittifoq" mahallasida bo'lib, tomorqa va uy xo'jaliklari bilan tanishib, mahallalarning o'sish nuqtalarini (drayver) aniqlash orqali joylarda aholini manzilli tarzda ijtimoiy himoya qilish, bu orqali aholini kambag'alikdan chiqarishda

²⁹ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/09/27/mahalla/>

Sirdaryo viloyati Sayxunobodda yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilayotgan yangi tajribani butun respublika bo‘ylab qo‘llashning ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligining ma’lum qilishicha, Sayxunobodda 19 ta mahallaning har biriga 1 tadan mini traktor, 4 tadan motokultivator olib berilgan.

Endilikda har bir mahalladagi hokim yordamchisi “1 sotix tomorqadan kamida 1-2 million so‘m daromad” degan mezon asosida aholi uchun biznes reja ishlab chiqadi. Mahalladagi agronomlar bilan birga olib berilgan texnikalar hisobidan tomorqa yerlarini haydash va ekin ekish xizmatlarini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, mahallada sotib olishni yo‘lga qo‘ygan eksportchi, ilg‘or tadbirkorlarga 300 million so‘mdan 1 mlrd so‘mgacha grant beriladi. Xonadonlar kooperatsiya asosida eksportchi bilan bog‘lab beriladi, 2 ming tonnalik saqlash, saralash va qayta ishlash kompleksi tashkil etiladi. Tumandagi 98 kilometr kanallar va drenaj tarmoqlari atrofidagi 100 gektar bo‘sh yerlar kooperatsiya asosida 500 ta xonadonga terak ekish uchun bo‘lib beriladi. Shuningdek, “Uychi tajribasi”, tadbirkorlar va biznes bilan shug‘ullanish istagidagi aholi bilan manzilli ishlash tizimi asosida tuman hokimlari tadbirkorlar bilan, banklar esa mijozlari bilan muntazam uchrashib, ularga biznesini kengaytirishga ko‘maklashishi belgilandi. Bunda tuman hokimi infratuzilma masalasi, bank esa moliyaviy ko‘mak masalasi bilan shug‘ullanadi. Mutasaddilarga tadbirkorlar bilan manzilli ishlash hisobiga yil yakunigacha 670 ming aholi bandligini ta‘minlash muhimligi qayd etildi. Umuman olganda, Sayxunobod yoki “Uychi tajribalari” orqali aholini tadbirkorlik ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga va “Kambag‘allikdan-farovonlik sari” dasturi ijrosi yuzasidan joylarga tadbiriq qilinishi muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

XULOSA

O‘zbekiston milliy taraqqiyoti bosqichida mahalla institutini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari mavzuyidagi siyosiy fanlar yo‘nalishidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi:

1. O‘zbekistonda milliy boshqaruv tuzilmasi bo‘lmish mahalla instituti, noyob va takrorlanmas institut sifatida, xalqimiz tarixida uzoq ming yilliklarni o‘z ichiga olib faoliyat olib borganligi tadqiq etilgan.

2. Bugungi tahlikali zamonda, mahalla yoshlarini turli yot va zararli g‘oyalardan asrash, ularni ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni jismonan yetuk qilib tarbiyalash masalasida tarbiya o‘chog‘i bo‘lgan mahallaning o‘rnini hech qaysi davlat organi bosa olmasligi ochib berildi.

3. Tadqiqotlarga asosan fuqarolik jamiyatini shakllantirishda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rnini va rolini yanada chuqurroq tahlil qilish, ularning vakolat doiralarini kengaytirish, jamiyat hayotida tashabbuskorlik ko‘rsatishlariga oid zarur taklif hamda tavsiyalar berildi.

4. Mustaqillik yillarida ko‘p konfessiyali mahallalarga bo‘lgan e‘tiborning yuqoriligiga qarab demokratik tamoyillar va umume‘tirof etilgan qadriyatlar qay darajada ekanligiga qarab baho beriladi. Zero, millatlararo totuvlik va ko‘p

konfessiyali mahallalarning mavjudligi demokratiya uchun ko'zgudir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda aynan ko'p millatli o'zbek xalqimiz milliy qadryatlari asosida mahallalarda millatlararo totuvlikni ta'minlashga oid tegishli tavsiyalar ilgari surildi.

5. Bugungi kunda mahalla instituti fuqarolik jamiyatini barpo etish va davlat hamda jamiyat qurish tizimini takomillashtirishdagi asosiy yukni o'z gardaniga olishi kerakligi yoritib berildi.

6. Tadqiqotimiz davomida mustaqillik yillarida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga berilayotgan imtiyozlar, mahallalarda aholini ijtimoiy himoyalash, kambag'allikdan chiqarish, mahallalarning o'sish nuqtalari orqali mahallaning faoliyat samaradorligi tahlil qilindi, shu bilan birga, yutuqlar qo'lga kiritilishi bilan birga, qator kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi.

7. Mahallalarda "Xavfsiz mahalla" konsepsiyasidan kelib chiqqan holda respublikamizda sodir etilgan jinoyatlar viloyatlar kesimida Davlat statistika qo'mitasining bergan ma'lumotiga asosan, solishtirma usulidan foydalangan holda, jinoyatlar o'sish yoki pasayish kabi prognozlar ilmiy tahlillar asosida tasniflab berildi.

8. Dissertatsiyada "Xavfsiz mahalla" tamoyili doirasida "Xavfsiz mehnat migratsiyasi" masalasiga ham to'xtalib o'tildi. Mahallada yashovchi har bir fuqaro "Xavfsiz mehnat migratsiyasi" bilan kafolatlanmaganligi, ayniqsa, mahalladagi ayollar bilan bog'liq "Xavfli mehnat migratsiyasi" kundan kun oshib borayotganligi ta'kidlab o'tildi hamda buni oldini olish yuzasidan manzilli tavsiya va takliflar berildi.

1. Mahallalarda oilaviy ajrimlar masalasi ham bugungi kunning dolzarb muammolaridandir. Zero, oilaviy ajrimlar qancha kam bo'lsa, ana shu mahallada tinchlik xotirjamlik hukm suradi. Tadqiqotimiz davomida respublika bo'yicha FHDYO organlari tomonidan ajrimlar soni 2000-2022-yillar oralig'idagi har 10 yillik statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, "Farovon oila – farovon mahalla – farovon jamiyat" g'oyasini amaliyotga joriy etish yuzasidan kerakli tavsiyalar berildi.

2. Mahalla institutini takomillashtirishning huquqiy asoslari mustaqilligimizning dastlabki davrlaridan bugungi kungacha bosib o'tgan qonuniy asoslari bir-biridan farqli jihatlari ilmiy asosda yoritib berildi.

O'zbekiston milliy taraqqiyoti bosqichida mahalla institutini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlariga oid amaliy xulosa va takliflar quyidagilardan iborat:

3. Afsuski, bugungi kunda fuqarolar yig'ini raislarning barchasini ham o'z faoliyatlari doirasida o'zlarining funksional vazifalarini bajarish kompetensiyasiga ega, deb bo'lmaydi. Aksariyat holatlarda odamlar ishonch bildirgan ayrim mahalla raislari o'z faoliyatiga doir tegishli normativ-me'yoriy hujjatlar, lavozimiy majburiyatlari, vazifalari haqida zarur bilimga ega emas shu boisdan mahalla raisligiga o'z nomzodini ilgari surgan shaxslar yoki saylangan raislarning O'zbekiston mahallalar uyushmasi huzurida tuzilgan maxsus komissiya asosida attestatsiyadan o'tkazish tizimini joriy etish lozim.

4. Jahon hamjamiyatini O‘zbekistondagi noyob bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqarish tizimi mahalla bilan yaqindan tanishtirish borasida xalqaro darajada targ‘ibot hamda tashviqot ishlarini kuchaytirishda O‘zbekistondagi xalqaro tashkilotlar va diplomatik vakolatxonalar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur.

5. 2018-yil 15-oktyabrdagi “Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi to‘g‘risidagi” qonunning 16-moddasiga asosan Ishchi guruh fuqarolar yig‘ini raisi lavozimiga nomzodlarga doir hujjatlarni tayyorlaydi va tuman yoki shahar hokimi bilan kelishish uchun tegishli komissiyaga saylovdan kamida o‘n kun oldin taqdim etadi degan normadagi tuman yoki shahar hokimi so‘zini O‘zbekiston mahallalar uyushmasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo‘limlari raisiga o‘zgartirish kerakligi taklif etildi. Natijada hali lavozimiga kirishmasidanoq mahalla fuqarolar yig‘ini raisini mahalliy hokimiyat ta’siriga tushib qolishini oldini olishga xizmat qiladi.

6. Mahallalarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan islohotlar doirasida, chiqindi tashib ketuvchi xususiy firmalar bilan o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasidagi shartnoma shartlariga asosan aholi to‘lashi kerak bo‘lgan chiqindi uchun to‘lovining ma’lum bir foizni va tegishli mahalla hududida amalga oshirilgan notarial harakatlar uchun to‘lanadigan davlat bojini ma’lum bir foizni fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hisob raqamlariga o‘tkazish zarur ekanligi taklif etildi.

7. Fuqarolar yig‘inlari faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish uchun fuqarolar yig‘inlari geografik joylashuvi hamda aholisi soni bo‘yicha toifalarga ajratilgan, lekin ularning faoliyatlari mehnat munosabatlari bilan muvofiqlashtirilmagan. Birinchi navbatda, mahalla xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzish, ularning mehnatiga lavozim maoshi shaklida haq to‘langanda, mukofotlar, qo‘shimcha to‘lovlar, ustamalar, rag‘batlantirish tarzidagi to‘lovlar, yillik mehnat ta’tillari qonun hujjatlarida belgilanayotganda fuqarolar yig‘inlarining geografik joylashuvi va aholisi soni bo‘yicha toifalar, albatta, inobatga olinishi kerak. Buning sababi mahallalardagi xonadonlar emas, balki ana shu mahalladagi aholi sonidan va geografik joylashuvi (anklav yoki tog‘ va tog‘ oldi) bo‘yicha hududlardagi fuqarolar yig‘inlari xodimlariga haq to‘lash maqsadga muvofiq.

8. Ayni vaqtda, mahalla faoliyatida raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish eng muhim vazifa bo‘lib, bu borada Davlat xizmatlari agentligidagi xizmatlarni mahallada yo‘lga qo‘yish zarur. Bu orqali aholining transport xarajati va vaqt sarfi tejalishi bilan birga, xizmatlarni amalga oshirishda shartnoma asosida hisob-raqamiga pul tushurilishi natijasida, mahalla byudjetini samarali tashkil etish imkoniyati yuzaga keladi.

9. Ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali mahallalar faoliyatini takomillashtirish borasida, mahallalarning etnik xaritasini tuzish, mahalla raisi yoki uning o‘rinbosari lavozimiga turli millat vakillarini ham jalb etish maqsadga muvofiq.

10. Fuqarolar yig‘inlari raislari va ularning maslahatchilarining mahalliy hokimiyat organlari bilan teng huquqlilik asosida faoliyat olib borishlarining

qonuniy asoslari ishlab chiqilganligini ularga muntazam tushintirib borish kerak ekanligiga oid tavsiyalar berildi.

11. Mavjud barcha mahallalarda uy-bekalari va ishsiz xotin-qizlar bandligini ta'minlash uchun "Hunarmand" uyushmasining jamoatchilik asosida ishlaydigan bo'limlarini tashkil etish hamda davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozimligi taklif etildi.

12. Mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha ta'sirchan tizimni shakllantirish maqsadida profilaktika inspektori ko'rib chiqadigan ma'muriy huquqbuzarliklar sonini oshirish maqsadga muvofiq.

13. Mahalla hududidagi aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq tarzda, mahalla aholisini ko'p qismini ish bilan ta'minlagan hunarmandchilik turiga kiruvchi – nonvoylik, sartaroshxona, tikuvchilik, yog'ochsozlik kabilar ish o'rinlari sonidan kelib chiqqan holda, soliqlarni to'lashda imtiyozlarni joriy qilish kerak.

14. "Bir bemorga – bir tadbirkor" tamoyilini joriy qilish asosida ijtimoiy himoyaga muhtoj og'ir bemorlarni mahalladagi yirik tadbirkorlar bilan bog'lash (hayriya maqsadida) orqali mahalla raisi mahalliy hokimiyat organlari bilan tadbirkorlarga turli soliqlar yoki imtiyozli kreditlar ajratilishida bevosita vositachi bo'lishi kerakligi haqida tavsiyalar berildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.20/13.05.2020.Ss.23.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ
ПОЛИТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ПРИ ПРЕЗИДЕНТЕ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

РАХИМОВ ИЛХОМЖОН АЗИМЖОНОВИЧ

**ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
ИНСТИТУТА МАХАЛЛИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ
УЗБЕКИСТАНА**

23.00.02 – Политические институты, процессы и технологии

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПОЛИТИЧЕСКИМ
НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2020.4.PhD/Ss242.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.dba.uz/uz/avtoreferatlar) и Информационно-образовательном портале “Ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Утамурадов Акбар Утамурадович,
кандидат философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

Байриева Алмагуль Гурбановна,
доктор политических наук, профессор
Алимардонов Тулкин Турдиевич,
доктор политических наук, профессор

Ведущая организация:

**Ташкентский государственный
университет экономики**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в ___ часов. на заседании Научного совета DSs.20/13.05.2020.Ss.23.03 при Академии государственного политики и управления при Президенте Республики Узбекистана (Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, 45, 7-этаж, 701- кабинет, Тел.: (99871) 232-60-47; e-mail: info@dba.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии политики и государственного управления при Президенте Республики Узбекистана (зарегистрирована №___), 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, 45, 7 этаж, каб. 701. Тел.: (99871) 232-60-47.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года
(Протокол реестра рассылки № ___ за «___» _____ 2025 г.)

К.К.Куранбаев

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, профессор

Г.О.Саъдиева

Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по политическим наукам (PhD)

А.Т.Жалилов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор политических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В начале XXI века, когда в мире усиливаются интеграционные процессы, в условиях происходящих в различных регионах мира социально-экономических и политических изменений, важное значение приобретает вопрос сохранения самоорганизующихся управленческих ценностей народов и передача их будущим поколениям. Эти процессы позволяют гражданам активно участвовать в социально-политических процессах посредством органов самоуправления, которые являются специфической местной структурой управления государств. Это свидетельствует о демократическом укреплении с каждым годом в жизни общества роли и авторитета данной структуры управления как самостоятельного института.

В развитых странах мира широко изучаются такие приоритетные вопросы, как обеспечение непосредственного участия граждан в государственном управлении и современный подход к их организационной деятельности посредством сохранения и совершенствования традиционных структур самоуправления. Вместе с тем следует подчеркнуть, что осуществляются научные исследования, посвященные укреплению научно-теоретических основ, приведения в соответствие с требованиями времени и развития деятельности структур местного управления, разработке специальных и совместных программ, направленных на расширение их деятельности. Такой подход увеличивает возможность разработки научно-практических рекомендаций по расширению масштабов реформ, относящихся к совершенствованию деятельности органов самоуправления, определению перспективных стратегий дальнейшего развития отрасли.

Происходящие в Новом Узбекистане масштабные изменения интенсивно входят во все сферы нашей жизни. Известно, что результаты происходящих в стране коренных изменений ярко проявляются в деятельности института махалли. Президент Шавкат Мирзиёев подчеркнул о предоставлении более широких возможностей махаллям в процессе их дальнейшего совершенствования: - “С первых дней нашей деятельности мы налаживаем всю работу непосредственно в махалле, вместе с нашим народом. Мы поэтапно развиваем эту систему. Сейчас даются дополнительные силы и возможности. Это означает и полномочия, и ответственность. Махалля – самая главная опора нашей страны”¹. Поэтому в настоящее время научное и практическое значение приобретает комплексное исследование махалли в жизни семьи и общества, соответствующей духу совместного проживания, издревле присущего нашему народу. В статье 127 нашей обновленной Конституции полномочия института махалли закреплены следующей нормой: - “Органы самоуправления граждан не

¹Обсуждены вопросы по дальнейшему усилению системы махалли // Под председательством Президента Шавката Мирзиёева 26 сентября состоялось видеоселекторное совещание по мерам дальнейшего усиления системы работы в разрезе махаллей // Народное слово. 27 сентября 2023 года. - № 201 (8545).

входят в систему органов государственной власти”².

Настоящая диссертация в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-4947 от 7 февраля 2017 года, УП-4944 от 3 февраля 2017 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию института махалли”, УП-60 от 28 января 2022 года “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы”, УП-81 от 1 марта 2022 года “О мерах по совершенствованию системы работы с семьями и женщинами, поддержки махалли и старшего поколения”, УП-158 от 11 сентября 2023 года “О стратегии “Узбекистан – 2030”, УП-209 от 21 декабря 2023 года “О мерах по кардинальному повышению роли института махалли в обществе и обеспечению его функционирования в качестве первичного звена решения проблем населения” и других нормативно-правовых актах, имеющих отношение к этой сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. “Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства и пути ее реализации”.

Степень изученности проблемы. При изучении вопросов совершенствования органов самоуправления граждан — института махалли, методологической основой служат труды и выступления Президента нашей страны Ш.М.Мирзиёева.

В существующей литературе имеется много сведений о махалле, имеющем тысячелетнюю историю. Например, произведения Имама Бухари, Абу Насра Фароби, Абу Бакра Наршахи, Абу Райхана Беруни, Амира Темура, Алишера Навои, Захириддина Мухаммада Бабура, Мухаммада Салиха Ташканди сыграли важную роль в усилении значения махалли в нравственных, общественно-политических отношениях.

К исследованиям, посвященным институту махалли, осуществленным в конце XIX – начале XX века, можно отнести труды А.П.Хорошхина, В.Наливкина, М.Наливкиной, Г.Арандаренко, К.К.Палена, Н.А.Маева, Н.Г.Маллицкого³, следует отметить, что приведенные в них сведения о коллективной жизни, культуре узбекского народа носят обобщающий теоретический характер.

В исследованиях, проведенных в период бывшего Советского Союза, при анализе некоторых особенностей системы махалли не было уделено должного внимания изучению национальных традиций управления, присущих местному населению, а также изменениям в методах национального общественного самоуправления. Они стремились раскрыть

² Конституция Республики Узбекистан, статья 127. - Национальная база данных законодательства, 01.05.2023 г., № 03/23/837/0241.

³ Научные работы этих авторов представлены в разделе «Список использованной литературы» диссертации.

влияние советской политики управления на основе национальных традиций местного управления, присущих узбекскому народу. В частности, это заметно в научных исследованиях Г.П. Снесарева, Р.Я. Рассудовой и О. Брусиной.

Первые взгляды на современные узбекские махалли представлены в работах таких зарубежных ученых, как Элин Кодуел, Шейла Марни, Джон Микелрайт, Дениз Кандиёти, Даниел Стивенс⁴, в которых частично освещены те или иные аспекты исследуемой проблемы.

